

FRAZELOGIYA TILSHUNOSLIKNING MUSTAQIL TARMOG‘I
SIFATIDA

Kaxarova Sh.N.

FarDu, tayanch doktorant

Annotatsiya: *Maqolada frazeologiyaning tilshunoslikdagi o‘rni va mustaqil tarmoq sifatida shakllanish jarayoni yoritilgan. Sh. Balli, R.A. Budagov va A.V. Kunin kabi olimlarning frazeologiyaga oid nazariy qarashlari hamda o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi frazeologik birliklarning o‘xshashlik va farqlari tahlil qilingan.*

Аннотация: *В статье рассматривается место фразеологии в системе языкознания и процесс её становления как самостоятельной отрасли. Анализируются теоретические взгляды Ш. Балли, Р.А. Будагова и А.В. Кунина, а также сходства и различия фразеологических единиц узбекского, английского и русского языков.*

Annotation: *The article highlights the role of phraseology in linguistics and its formation as an independent field. It analyzes the theoretical views of Ch. Bally, R.A. Budagov, and A.V. Kunin, as well as the similarities and differences of phraseological units in Uzbek, English, and Russian.*

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, frazema, leksikologiya, idiom, barqaror birikma.*

Ключевые слова: *фразеология, фразема, лексикология, идиома, устойчивое выражение.*

Keywords: *phraseology, phraseme, lexicology, idiom, fixed expression.*

Tilshunoslikda “frazelogiya” atamasi asosida ikki va undan ortiq mustaqil so‘zlarning ma’no jihatidan mustahkam birikishi orqali hosil bo‘lgan birikmalar (iboralar) tushuniladi. Bu birikmalar yuzlab yillar mobaynida xalq tilida shakllangan bo‘lib, ularni ajratib alohida olingan holatdagi ma’nosi frazeologik birikma ifodalagan ma’noga mos kelmaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi “tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq” iborasi frazeologik nuqtai nazardan “hafsalasi pir bo‘lmoq” ma’nosini anglatgan holda “tarvuz”, “qo‘ltiq”, “tushmoq” so‘zlari alohida olinganda butunlay boshqa ma’noni anglatadi. Ingliz tilidagi “vafot etmoq”, “bandalikni bajo keltirmoq” ma’nosini anglatuvchi “to kick the bucket” yoki rus tilidagi “tavakkal qilmoq” ma’nosini anglatuvchi “купить kota в мешке” iboralari haqida ham ana shunday fikrni bildirish mumkin. Frazeologik birikmalar tilda keng tarqalgan bo‘lib, uni adabiyotning turli janrlarida uchratish mumkin.

Frazeologiya tilshunoslikning, aniqrog‘i, leksikologiyaning mustaqil bir tarmog‘i sifatida 20-asrning 30-yillarida shakllandi. Bunga taniqli fransuz tilshunosi Sharl Ballining olib borgan tadqiqotlari asos bo‘lib xizmat qildi.¹⁹ Bu haqda rus tilshunosi va

¹⁹ Балли Шарл. Общая лингвистика и вопросы французского языкознания. Пер. с французск. М., 1955. – С. 56-57.

Sh. Balli asarlari tadqiqotchisi R.A. Budagov o'zining "Sharl Balli va uning umumiy tilshunoslik va fransuz tilshunosligi bo'yicha olib borgan ishlari" deb nomlangan asarida ancha keng tadqiqot ishlari olib borilgan. Sh. Ballining ilgari surgan g'oyalari o'tgan asrning 40-yillarida rus tilshunosligiga va Yevropa tilshunosligiga kirib bordi. 1960-yillarning oxirida bu g'oyalar nemis tilshunosligida va ingliz tilshunosligida keng tarqala boshladi. Bunda nemis tilshunosi Veynreix (1969), rus tilshunosi I.V. Arnold²⁰ larning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Rus tilshunosi A.V. Kuninning ta'biricha, frazeologik birliklar o'z ma'nosini qisman yoki to'laligicha yo'qotgan komponentlardan tashkil topgan birikmalardir.²¹ Ularni ba'zan "frazema" deb ham ataydilar.

Til ijtimoiy hodisa sifatida lug'at boyligiga mansub birliklar va grammatik qurilishga mansub birliklardan (bular tovush asosida gavdalanadi) hamda shulardan foydalanish qoidalaridan iborat. Lug'at boyligiga mansub birlik lug'aviy birlik, grammatik qurilishga mansub birlik esa grammatik birlik deyiladi.

Lug'at boyligida ikki qatlam mavjud: so'zlar qatlami va shular asosida tarkib topgan iboralar, frazeologik xarakterdagi (birikmalar, frazemalar) qatlam.

Har bir so'z ma'lum ma'no anglatadi. Ammo bu ma'no barcha so'zlarda bir xil emas. Shu jihatdan so'zlar bir necha guruhga bo'linadi. So'zlarning ma'no turlari odatda, so'zlar turkumlariga bog'lab belgilanadi.

"Til" so'ziga tilshunoslikda turlicha ma'no beriladi. Keng ma'noda til deganda xotirada mavjud ijtimoiy boyluk ham, bu boylukdan foydalanish jarayoni ham, shu jarayon natijasida yuzaga keladigan matn ham tushuniladi.²² Til deganda asli xotirada saqlanuvchi ijtimoiy boylukni, matn hosil etish uchun xizmat qiladigan hodisalarni, shulardan foydalanish qoidalarini tushunish to'g'ri bo'lib, bunda til bilan matn o'zaro chegaralanadi, tilga mansub birliklarni til birligi deb, matnning o'zida tuziladigan birliklarni matn birligi deb farqlash mumkin.

Leksemaga shunday ta'rif ham beriladi – jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvdan tashkil topgan, voqelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, matn va lug'atda berilgan morfemalarni o'ziga biriktira oladigan morfema turi — leksemdir. Demak, leksik birlik deganda leksema ko'zda tutiladi, leksemalarni o'rganuvchi soha leksikologiya deyiladi (yunoncha lexikos – "so'zga doir", logos – "ta'limot").

Lug'at boyligidagi ikkinchi qatlamni birikmalar, ya'ni iboralar tashkil etadi. Bular frazeologik birliklar deb yuritiladi. Ularni "leksema" terminiga moslab "frazema" deb ham yuritiladi. Frazemalarni o'rganuvchi soha frazeologiya deyiladi.

²⁰ Arnold I.V. The English Word. Москва. Higher school publ. house. 1973. – P.86.

²¹ Кунин А.В. "О переводе английского фразеологизмов в англо-русском фразеологическом словаре". "Тетради переводчика". №2, ИМО, Москва, 1964. – С. 65.

²² Турсунов У., Мухтаров Ж., Рахматуллаев Ш. Хозирги ўзбек адабий тили. Тошкент. 1955. – В. 113.

Leksemalarning ifoda planini belgilashda avval tub leksemalar, keyin hosila leksemalar tahlil qilinishi lozim.

Tub leksemaning ifoda plani deganda nimalar nazarda tutiladi? Tub leksemalarda ifoda plani deb, ularning gavdasi bo‘lib xizmat qiladigan fonemalar tizimi aytiladi (tizim – qaysi fonemalarning qanday tartibda joylashib, bir butunlik hosil etishidir).

Tub leksemaning ifoda planiga bog‘liq hodisalardan biri – ularning bo‘g‘in tuzilishidir. Tub leksemalar asosan bir va ikki bo‘g‘inli bo‘ladi. Bir bo‘g‘inli leksemalarning ko‘pi uch fonemali bo‘lib, “undosh + unli + undosh” tizimiga ega: o‘zbek tilida bosh, qosh, tur, yur va boshqalar; ingliz tilida cut, but, nut, rat, cat, cup va hokazo.

Ikki fonemali tub leksemalar ko‘pincha “unli + undosh” tizimiga ega: o‘zbek tilida ish, osh, ot, uch va boshqalar; ingliz tilida esa “undosh + unli” tizimidagi leksemalar sanog‘li: no, hi, by.

Tub leksemalarning ifoda planiga bog‘liq yana bir hodisa – ularning boshida, o‘rtasida, oxirida fonemalarning qanday joylashuvidir. O‘zbekcha bir bo‘g‘inli tub leksemalar boshida ikki undosh qator kelmaydi, oxirida ham ikki undosh qator kelishi juda kam uchraydi. (Qator kelgan undoshdan keyingisi ko‘pincha qo‘shilgan qism bo‘lib chiqadi): ost, ust, old, ort kabi.

Ingliz tilida esa ikki unli tub leksema boshida ham, oxirida ham qator kelishi kuzatiladi: out, buy, oak, say; ikki undosh qator oxirida ham kelishi mumkin: end, old, odd.

Leksemaning ifoda planiga bog‘liq hodisalardan yana biri – fonetik cho‘qqidir (pitch). Matnning fonetik bo‘linishida eng kichik talaffuz birligi – bo‘g‘in. Matn birligi emas, til birligi bo‘lishidan qat‘i nazar, leksema ham o‘zbek tilida kamida bir bo‘g‘inga shunday birlashadi. Masalan: ko‘z, ost va cat, out leksemalarida uch fonema bir bo‘g‘inga birlashadi. Bo‘g‘in hosil qilish unli fonemaga xos bo‘lib, undoshlar unilarga qo‘shilib talaffuz qilinadi, talaffuz cho‘qqisi unli fonemada bo‘ladi: ko‘z, ost, cat, old.

Hosila leksemaning ifoda plani deganda, avvalo bunday leksema qaysi til birliklari asosida hosil qilingani nazarda tutiladi. Hosila leksemalar yasama, qo‘shma, juft, takror leksemalar bo‘lishi mumkin.

Yasama leksemaning ifoda plani bo‘lib leksema bilan derivativ (leksema yasovchi morfema) keladi. Masalan: ov + chi = ovchi, ingliz tilida play + er = player: fonemalar esa ana shu yasash asosidagi leksema va yasovchi morfemaning ifoda planidan iborat bo‘ladi.

O‘zbekcha qo‘shma leksemada uning birinchi qismi so‘z shaklga, ikkinchi qismi leksemaga teng bo‘ladi. Ifoda plani deb dastlab ana shular ajratiladi, keyingi plani sifatida fonemalar ta’kidlanadi. So‘ng har birining o‘z tarkibi belgilanib, oxiri tub qismlarning ifoda plani sifatida fonemalar ta’kidlanadi.

Juft leksema, takror leksema odatda ikki so‘z shakldan tuzilib, yaxlitligicha leksemaga teng bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arnold I.V. The English Word. Москва. Higher school publ. house. 1973. – P.86.
2. Кунин А.В. “О переводе английского фразеологизмов в англо-русском фразеологическом словаре”. “Тетради переводчика”. №2, ИМО, Москва, 1964. – С. 65.
3. Турсунов У., Мухтаров Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1955. – В. 113.
4. Балли Шарл. Общая лингвистика и вопросы французского языкознания. Пер. с французск. М., 1955. – С. 56-57.

